

Nutqning tur, uslub va shakllari

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat Qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti

*Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi
3-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Umurqulov Bekpo'lat

Annotatsiya: Bu maqolada nutq madaniyati tur, uslub va shakllarining kundalik faoliyatimizdagi tarkibiy qism ekanligi, madaniy nutq ko'nikmasini hosil qilish borasidagi fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutqiy faoliyat, nutq shakllari, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop (publitsistik) uslub, badiiy uslub, nutq turlari.

Har bir insonda nutqiy qobiliyat va imkoniyati mavjud bo'lib, u tafakkurni shakllantirishga, bilimlarni xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborot uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng muhim, bevosita va bilvosita muloqot qilish vositasi.

Nutq – kishilarning ongida mavjud lisoniy imkoniyatlarni o'g'zaki yoki yozma shakllarda voqealantirilishi. Masalan, aytgan yiki yozgan gaplarimiz nutq bo'lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo'ladi. Nutqiy faoliyat tildan foydalanuvchilarning gapirish, nutq so'zlash bilan birga, tinglash jarayoni ham. Mashhur amerikalik notiq psixolog Deyl Karnegi "yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatning insonda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Nutqiy faoliyat kundalik hayotimizning tarkibiy qismidir. Nutq madaniyati kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqador. Adabiy tilning o'zi nutq faoliyatini tashkil eta olmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanilgandagina adabiy til nutq madaniyati vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, gazeta va jurnallar chiqariladi. Radio va televideniya eshittirishlarida usgbu til me'yorlariga amal qilinadi. Yozma nutqda o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz talablariga rioya etiladi. Adabiy nutq, uning yozma va og'zaki shakli me'yorlari bu tilda

so‘zlovchilaming shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig’indisidan iborat bo‘lgan umumiylar me’yor sifatida namoyon bo’ladi.

Adabiy nutq madaniyatini egallahda tilga e’tibor, unga chinakam hurmat va muhabbat muhim rol o‘ynaydi. Adabiy nutq me’yorlarini shunchaki qiziqish va u bilan nomigagina shug‘ullanish bilan egallab bo‘lmaydi. Buning uchun shaxsning saviyasi yuksalishi, bilimi o‘sishi ham talab etiladi. Shunga ko‘ra, adabiy nutq madaniyati nutqiy ko‘nikma, nutqiy malaka natijasidir. Nutq madaniyati malakasiga adabiy til qoidalari, til bo‘yicha bilimlar, tajriba orqali erishiladi. Nutq madaniyati malakasi egallangan bilim, o‘rganilgan qoidalari emas, balki kishining ularga o‘z nutqiy faoliyatida amal qilishga, qo’llashga erisha olgan ko‘nikmasidir. Ko‘rinadiki, nutq madaniyati aniq nutqiy faoliyat, aniq nutqiy amaldir. Nutq madaniyati va nutqiy faoliyat uzviy bog‘liq. Madaniy nutq madaniy nutqiy faoliyat mahsulidir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallah madaniy nutq ko‘nikmasini hosil qilish demakdir.

Nutq shakllari. Nutq ikki shakldan birida namoyon bo‘ladi:

- og‘zaki nutq;
- yozma nutq.

Har bir nutq shakli o‘ziga xos qoidalarga ega. Masalan, og‘zaki nutq talaffuz me’yorlariga ega bo‘lsa, bu yozma nutqda imlo qoidalari bilan almashadi. Og‘zaki nutqda ohang, talaffuzning to‘g‘riliqi, anqligi, ovozning baland/pastligi, samimiyligi/nosamimiyligi katta rol o‘ynaydi. Yozma nutqda harf shakllari, savodxonlik, jumlalaming to‘g‘riliqi va mantiqiyligi kabilar ahamiyatga ega. Shuningdek, og‘zaki nutq leksikasi yozma nutq leksikasidan farqlanadi. Masalan, tilimizda *apteka* va *dorixona* so‘zlari mavjud. Ikkalasi ham lug‘atlarimizda qayd etilgan. Ammo ulaming biri og‘zaki, ikkinchisi yozma nutqqa xos. So‘zlashuvda yozma nutqdagidek, yozishda og‘zaki nutqdagidek ish ko‘rish kulgili. Masalan, o‘zbek tilidagi *-gach* qo’shimchasi yozma nutqqa xos. *Salim kelgach, men ketdim* tipidagi gaplami og‘zaki nutqda qoilamaymiz Lekin ayrim kishilaming bu o‘zbek tili tabiatiga xos emas, u sun’iy qo’shimcha deganlarini ham eshitganmiz. Holbuki, she’riyat mnlkining sultonii hazrat Navoiy nazmida bu qo’shimcha faol ekanligi ma’lum:

*Kuydiyuz shomi ajal, zulfin parishon aylagach,
Umr xurshidi yoqtı, chehrapinhon aylagach.*

Yoki:

*Ko‘zung qonimg‘a serob etti o‘zni naqdi jon olg‘och,
Nachukkim mast bergay mayg‘a naqdi royagon aylagach.
kabi.*

Demak, so‘zlovchining nutq madaniyati deganda nutq sharotiga mos ravishda so‘z va iboralami o‘z o‘mida qoilab, fikrini to‘g‘ri, ravon, tushunarli ifodalash tushuniladi. Misol qilib keltirilgan **-gach** qo‘srimchasi ham kitobiy uslubga xos. So‘zlashuvda esa uning sinonimi bo‘lgan **-gandan keyin** shaklini ishlatish o‘rinli: **Salim kelgandan keyin men ketdim** tarzida.

Nutq uslublari. Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisasidan maqsad, sharoit va muhitga mos ravishda foydalanish qonrmiyati bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslub va uning turi, til vositasining qo‘llanish xususiyati, fonetik, lug‘aviy, frazeologik va grammatik birlikning uslubiy imkoniyati o‘rganiladi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma’lum bir sohada qo‘llanadigan ko‘rinishi **adabiy nutq uslubi** deyiladi[1]. Uslubshunoslikning tilda tutgan o‘mi beqiyosdir. Uslubshunoslik me’yorlami shakllantirish, mashhur tilshunos olim G.O. Vinokur ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi, uning eng muhim vazifasidir. Chunki uslubiy me’yomi yaxshi bilmasdan, ulami mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo’lmaydi[2]. Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma’lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqda xilma-xil ko‘rinishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday xilma-xil nutq ko‘rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi. Nutq uslublari ifoda vositalari tizimining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko‘rinishlaridir. Nutq uslublari tilning vazifasi –funksiyasi bilan bevosita bog’liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslublar deb ham yuritiladi. O‘zbek adabiy tilida 5 ta asosiy nutq uslubi bor: so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub. Ayrim darslikda so‘zlashuv uslubidan boshqa barcha uslub **kitobiy**

uslub degan umumiy nom ostida beriladi. Barcha uslubda cheklanmagan tarzda ishlataladigan so‘z va qo’shimcha uslubiy betaraf deyiladi: **suv, tog‘, bola, xat.**

So‘zlashuv uslubi. Keng qo’llanadigan uslubdan biri - so‘zlashuv uslubi. Bu uslubda, odatda, adabiy til me’origa rioya qilixunaydi. So‘zlashuv uslubidagi gap asosan dialogik shaklda bo‘ladi. Bunda turli uslubiy bo‘yoq dor so‘z, grammatik vosita qo’llanadi. Shuningdek, tovush tushib qolishi, orttirihshi ham mumkin: **Obbo, hamma ishni do‘ndiribsiz-da. Mazza qildik Ketaqooool!** So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘z tartibi ancha erkin. Ko’proq sodda, toiiqsiz, undalmali gaplardan foydalaniladi. Jargon, argo, vulgar, varvar so‘zlar ham ishlatalaveradi. Ayniqsa, bu nutq madaniyati yuqori bo’lмаган kishilarda ko‘proq uchraydi. vulgar, varvar so‘zlar ham ishlatalaveradi. Ayniqsa, bu nutq madaniyati yuqori bo’lмаган kishilarda ko‘proq uchraydi. O’g’zaki nutqda qochma, piching, hazil-mutoiba, askiya uchun keng imkoniyat mavjud bo‘ladi. O’g’zaki nutq rasmiy – ish yuritish va ilmiy uslubda qo’llanilmaydi.

Ilmiy uslub. Fan-texnikanинг turli sohasiga doir ilmiy asarlar, darslik va qo’llanmalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma’lumot asosida chiqarilgan ilmiy xulosa (qoida, ta’rif)larga boy bo‘lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi: **Yomg’ir — suyuq tomchi holidagi atmosferayog’ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi.** Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so‘z o‘z ma’nosida qo’llanadi, qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘lak, kirish so‘z, kirish birikma, shuningdek, qo’shma gaplardan keng foydalaniladi. Ilmiy uslubning hozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog’liq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlari bor[3]:

- 1) axborotning ob’yektivligi, aniqligi;
- 2) nutqning ma’lumotlarga boyligi;
- 3) fikrning lo’nda, qisqa ifodalanshi;
- 4) muallif individualigining sezilmasligi;
- 5) emotsiyallik, obrazlilikning bo’lmasligi;
- 6) atama, chizma, rasm va jadvallarning bo‘lishi;
- 7) matnning siqiq sintaktik qurilmalardan tuzilishi;
- 8) adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilinishi;
- 9) fikrlarning mantiqiyligi va qat’iy tartibda bo‘lishi;

- 10) ellipsis hodisasining bo'lmasligi (nazarda tutilgan birorta so'zning tushib qolishi);
- 11) turli xil tushunchalarni ifodalovchi otlarning ko'p ishlatalishi;
- 12) otlarni, asosan, birlikda ishlatalish;
- 13) matnda fe'lning majhul nisbatidan foydalanish;
- 14) maxsus bog'lash uchun xizmat qiladigan so'z, so'z birikmalarining qo'llanilishi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idorasini tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjat rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Shuningdek, ariza, tilxat, ma'lumotnama, chaqiruv qog'ozi, taklifnama, shartnama, tarjimayi hol, e'lon, tavsifnama, dalolatnama, hisobot kabilalar ham shu uslubda bitiladi. Rasmiy-idoroviyligi uslubdagagi hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Bu uslubning asosiy belgisi - jumlalaming bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Rasmiy-idoraviy uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlataladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Bu uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Gap bo'lagining odatdagagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi. Rasmiy ish yuritish uslubining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) badiiy tasvir vositalari bo'lmaydi;
- 2) uslub leksikasi kitobiy va xolis so'zlardan iborat bo'ladi: uslubda professional terminologiya mavjud bo'ladi;
- 3) eskirgan so'z va iboralar o'rni bilan ishlataladi;

Ommabop (publitsistik) uslub. Tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qoilanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub deyiladi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan boiishi uchun ifodali so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari joylashuvi odatdagagi tartibda bo'ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplar, yoyiq undalma, takroriy so'z va birikmalar unumli qo'llanadi. Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, ular publitsistik uslubning umumiyligi talablariga bo'ysunadi. Chunonchi, bu uslubning

ikkala turida ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Badiiy uslub. Adabiy asarlar badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsol (obraz) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi. Badiiy uslubda qahramon nutqini jonli berish oddiy nutq so'zi, sheva, vulgarizmdan ham foydalilanildi:

— *Hech munaqa kasalim yo'q edi. Ertalab parkka kelsam, bitta tanish shopir:* «*Ko'zing sarg 'ayipti,, medpunktga kir» , deb qoldi. Medpunktga kirsam, jigar kasali, deb aytishdi. Keyin « skoriy pomosh» ga o'tqazib, buyoqqa yuborishdi. Pastda tekshirishdi. Cho'miltirib, mana bularni kiydirishdi. Keyin bu yerga... o'zingiz nima ish qilasiz, aka[4,2]?*

— *Men shoir Rafiqiyini ko'rghanman! — dedi u hayajon bilan. — Apisha zakaz qilish uchun bosmaxonaga boramiz- da!* He, ko'cha devorlariga, avtobuslarga yopishtiriladi- ku **apisha?** O'sha uchun... O'shanda ko'rghanman. Oq sochli **kishy** ekan.

— *Desangiz, bizga... menga har oy bepul abonnement qog'oz berishadi. Bo'sh vaqtim bo'ldimi, duch kelgan aptovusga tushaman. Shaharni aylanaman... Misol uchun, aptovusda ketyapman. Ko'rib qolamanki, bekatda bir chol alanglab turipti. Sezaman: yo'lni bilmaydi, adashgan... Shartta aptovusdan tushaman. «Salom Malaykum, otaxon! Yo'l bo'lsin?» « E, bolam, adashib qoldim. Falon joyga bormoqchi edim» . Men darrov u kishiga tushuntiraman: shundoq aptovus keladi, o'shangan o'tirib, falon bekatda tushasiz... Vassalom. Chol bizni duo qiladi. Men yana aptovuzga tushib ketaveraman. Yana bir bekatda[4,3]...*

(Shukur Xolmirzayev "Bodom qishda gulladi")

Nutq turlari. Nutq rasmiy va norasmiy turlarga bo'tinadi. Yozma nutqning so'zlashuv, badiiy, publisistik uslublaridagi nutq norasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bu uslublarda nutq egasi erkin harakat qiladi. Nutqdan maqsad va uning kimga mo'tjallanganligiga qarab nutq egasi til birliklaridan istaganicha foydalana oladi. Masalan, so'zlashuv nutqida so'zlovchining adabiy yoki sheva unsurlaridan, ilmiy terminlardan foydalanishini, jumlalarning to'riq yoki noto'riq bo'lishini, imo-ishora vositalarini qay tarzda qo'llashini hech kim nazorat qilmaydi va xmga baho berib o'tirmaydi. So'zlovchi faqat nutq sharoiti, nutq vaziyati va hamsuhbatning kimligidan kelib chiqqan holda o'zini o'zi nazorat qiladi. Badiiy va publisistik uslub nutqi

haqida ham shunday deyish mumkin. Rasmiy va ilmiy uslubdagi nutq rasmiy nutq hisoblanadi. Rasmiy nutq o'matilgan qoidalar asosida tashkil etiladi. Ma'ruzalar, dokladlar og'zaki ko'rinishda bo'lganda ham, rasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bunday og'zaki nutq bilan yozma nutq orasida jumlalar qurilishi, so'zlamning qoilanishida farqlar kam seziladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir inson nutqiy faoliyatida nutq turlari, shakllari va uslublaridan bevosita va bilvosita kundalik hayoti davomida foydalanadi. Nutqimizda foydalanayotgan bu tur, uslub va shakllar tilimiz va nutqimizda g'alizlikni keltirib chiqarmasligi uchun, har bir so'zni nutqimizda o'z o'rnida qo'llay olishimiz darkor. Buning uchun nutqimizning tur, uslub va shakllari borasidagi bilimlarimiz va amaliy ko'nikmamiz shakllangan bo'lishi va bu bilim va ko'nikmlarani kelasi yosh avlodga ham o'tkazishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Laylo Raupova**, Nutq madaniyati. – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" 2019.
2. **R.Rasulov, Q.Mo'yindinov**, Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. –Toshkent 2015.
3. **Shukur Xolmirzayev**, *Bodom qishda gulladi.- 1984.*
4. *ziyouz.com.kutubxonasi.*